


Amaliy tadqiqotlar tanlovi mavzusi

“Yer to‘g‘risidagi fanlar” yo‘nalishi

Loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
Metallurgik ishlab chiqarishda hosil bo‘ladigan texnogen chiqindilardan germaniy metallini ajratib olish texnologiyasini ishlab chiqish 	Tadqiqot shakli: Amaliy. Ilmiy tadqiqot natijalari: - noyob metallar ajratib olish jarayoni xomashyodan yanada samarali foydalanish imkonini berib, ishlab chiqarish tannarxini pasaytiradi; - boyitish chiqindilaridan ajratib olingan amorf kremniy oksidi qurilish, kimyo va boshqa sanoat tarmoqlarida keng qo‘llash imkoniyati yaratiladi; - temir oksidli pigmentlar ishlab chiqarish: loyihada chiqindilardan ajratib olingan temir oksidli pigmentlardan bo‘yovchi modda sifatida sanoat mahsulotlarida, jumladan, bo‘yoq va plastmassa ishlab chiqarishda foydalanilish imkoniyatlari o‘rganiladi; - chiqindilar hajmini kamaytirish va ekologik samaradorlik: Loyihada chiqindilarni qayta ishlash va ularni foydali mahsulotlarga aylantirish orqali ekologik ta’sirni kamaytirish asosiy natijalardan biri hisoblanadi; - chiqindilarning utilizatsiya qilinishi va qayta ishlanishi ekologik xavfsizlikni ta’minlaydi, atrof-muhitga zararli moddalar chiqishini kamaytiradi - loyihada chiqindilardan yuqori qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish orqali korxonaning ekologik samaradorligi oshiriladi. Natijalarni sinovdan o‘tkazish. Olingan natijalar “Olmaliq KMK” AJ ishlab chiqarish jarayonlari sharoitida sinovdan o‘tkaziladi va ularning amaliyotda foydalanish uchun qabul qilinganligi to‘g‘risida “Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyatining xulosasi olinadi. Ilmiy natijalarni chop etish. Olingan tadqiqot natijalari intellektual mulk obyektlari uchun hujjatlar tayyorlanadi. Tadqiqot natijalari asosida tavsiyanomalar, o‘quv qo‘llanmalar, hamda nufuzli jurnallarda va <i>Web of Science/Scopus</i> ma’lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda maqolalar chop etiladi Izoh. Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar “Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyatining qo‘llab-quvvatlash xati mavjud bo‘lganida qabul qilinadi.